
TA’LIMNI INNOVATSIYON YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Fayzullayeva Shahzoda Ikromjon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

BT-02 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunning eng muhim mavzularidan biri ya’ni ta’lim jarayonlari islohatlari hamda ta’lim tizimida innovatsion yondashuv nima va u qanday amalga oshirilayotganligi haqida ko‘rib chiqamiz. Aynan innovatsion yondashuv orqali yoshlarga yanada ko‘proq bilim, ko‘nikma, malaka berib boriladi*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, innovatsion, texnologiyalar, ko‘nikma, malaka, ta’limda texnologiya, o‘quvchilarning rivojlanishi,*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’limga bo‘lgan e’tibor, yoshlarga bo‘lgan e’tibor kundan kunga ortib bormoqda, zamon talabiga mos keluvchi kadrlar zamonaviy texnologiyalar asosida yangi yonalishlarda bilimlar berib borilmoqda. Shuningdek xar bir ta’lim jarayonida zamonaviy metodlar, zamonaviy texnologiyalar, inovatsion g‘oyalar asosida dars ishlanmalari asta sekinlik bilan har bir viloyatga, shaharlarimizga kirib bormoqda. Shu o‘rinda inovatsiya so‘ziga izoh berib o‘tsak : “Innovatsiya” ingliz tilidan olingan so‘z bo‘lib (innovation) “yangilik kiritaman” degan ma’noni ifodalaydi. Aynan bu so‘zga mazmun jihatdan qaraydigan bo‘lsak innovatsiya tushunchasi ma’lum bir ichki tizmni o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatdir.

Pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan innovatsiyalar - ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan har qanday yangilik, uning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar nima maqsadda kerak. Zamonaviy texnologiyalar afsuski har bir hududga ham kirib bormagan. Bu esa ayrim hududlarda an‘anaviy ta’lim tizimini saqlanib qolinishiga sabab bo‘lyapti. Hozirgi kunda xususiy maktablar bog‘chalar, universitetlar faoliyat yuritmoqda bu ta’limda raqobat, ta’limda rivojlanishga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa xususiy maktablarda ta’lim tizimida yangicha yondashuv asosida darslar o‘tilmoqda bunga misol chet tili darslarini ko‘rib chiqsak bo‘ladi, avvallari darslar faqat kitob asosida grammatika darslari bir xil tizmda o‘tib borilar edi.

Ta’lim innovatsiyalari ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonidagi mavjud muommolarni yangicha yondoshuv asosida maqsadida qo‘llaniladigan, tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyatda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, sub’ektlarning faoliyati to‘la

yangilanadi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi, amaliyotning o‘zi ham yangilanadi

Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni samarali amalga oshirish uchun innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilarning kognitiv va emotsional rivojlanishiga ta’sirini chuqurroq o‘rganish, turli xil innovatsion metodlarning samaradorligini taqqoslash, innovatsion yondashuvlarni joriy etishda duch kelinadigan to‘sqliami bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazish lozim.

Ta’lim innovatsiyalarining to‘rtta asosiy turlari bo‘lib, ular quyidagilardan iborat.

I. Faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha

II. Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra III. o‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra

III. O‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra

IV. Kelib chiqish manbaiga

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuv - buni bir nechta bosqichlari mavjuddir, bularni quyida ko‘rib chiqamiz.

-Zamonaviy texnologiyalar asosida darslar tashkil qilinishi

-Metodlardan foydalanish

-Jamoaviy hamda individual ishslash

-Yangi g‘oyalar kiritish

-Noananaviy dars ishlanmasi asosida darslar berib borilishi.

Zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi, o‘quvchilarga bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijodiy yondashuvini va hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bu esa, an’anaviy ta’lim metodlaridan uzoqlashish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Maqola, shuningdek, o‘quvchilarning kognitiv va emotsional rivojlanishiga innovatsion yondashuvlarning ta’siri, ta’lim sifatini oshirishda ularning roli va o‘qituvchilarni innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga tayyorlash masalalarini ham ko‘rib chiqadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkunki maqolaning maqsadi ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, pedagogik ta’limotlar nazariyasining dolzarb masalalarini ochib berish va o‘quvchilarning rivojlanishini samarali qilishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizov, A. (2019). Ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Xodjayev, O. (2020). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. Toshkent: Yangi Asr Avlod.

3. Rasulov, D. (2021). O'zbekiston ta'lif tizimida zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi nashriyoti.
4. Qudratova, S., & Tilovboyeva, S. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARGA ZAMONAVIY BILIMLAR BERISH. Modern Science and Research, 3(12), 378-382.
5. Qudratova, S. (2024). Problematic education, which is one of the foundations of the STEAM approach in education. Modern Science and Research, 3(1), 1-6.
6. Qudratova, S., & Azizova, D. (2024). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH. Modern Science and Research, 3(12), 305-311.